

“Kelajak soati” 1-mavzu

“Kelajak soati” darsining 9-11 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

1-mavzu: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun”

Dars maqsadi:

O‘quvchilarga milliy mustaqillik ahamiyatini anglash,

mustamlaka davri davri ko‘rguliklari,

istiqlol yo‘lida jafokash xalqimiz ko‘rsatgan matonat,

Yangi O‘zbekistonning bunyod etilishida mamlakatimiz Prezidenti olib borayotgan mustaqil, xalqparvar siyosatning ahamiyati xususida ta’sirli ma’lumot va ko‘nikmalar berish.

☒ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

- o‘quvchilar mustamlaka va mustaqillik farqini anglaydi;
- mustaqillikning qadrini tushunadi;
- mustaqillikni kundalik amaliy ishlar, fidoyilik, mas’uliyat bilan mustahkamlash zaruratini uqib oladi;
- Prezidentimizning Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lidagi xalqparvar siyosati to‘g‘risida ma’lumot va bilimlar oladi;
- islohotlarga daxldorlik, Vatan va millat taqdiri uchun javobgarlik, faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, zamona qahramoni yoki mashhur kishilar intervyulari, o'yin elementlari va qo'shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to'plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.

Dars ssenariysi

Dastlabki 10 daqiqada mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etiladi (prezentatsiya).

1. **KIRISH. Motivatsion qism(10 daqiqa)**



O'qituvchi: Aziz bolajonlar, mana hozirgina hammamiz “Birinchi qo'ng'iroq” tadbirida hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sizlarga va o'qituvchi-murabbiylarga yo'llagan tabrigini tingladik. Prezidentimiz tabriklarida alohida ta'kidlab o'tganlaridek: **“maktab – bu mo'jiza, kitob, ustozlar o'tadigan har bir dars – beqiyos xazinadir!”**

president.uz

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, barchangizni Vatanimizning Mustaqillik bayrami bilan tabriklayman! Xabaringiz bor, poytaxtimiz Toshkent shahridagi Yangi O'zbekiston bog'ida Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami katta tantana qilindi. Shu bayramda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hammamizni bayram bilan tabrikladilar. Keling hozir birgalikda Prezidentimiz so'zlariga quloq tutamiz!

Dars mashg'uloti boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar haqidagi fikrlari aks etgan rolik qo'yib beriladi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, mana hozirgina ko'rganimizdek, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sizlarga katta ishonch bildirdilar. Biz hamisha mana shu ishonchga munosib bo'lishimiz kerak. Buning uchun birinchi navbatda bilim olshimiz, oilamizni, Vatanimizni yaxshi ko'rishimiz zarur! Xo'pmi?

O'quvchilar: ha-a-a

O'qituvchi: – Aziz o'quvchilar. Eshitgansiz, o'qigansiz – fidoyi jadid bobomiz Cho'lponning:

Ko'ngil, sen bunchalar nega,
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen buncha sustlashding?...
Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan.
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ulg'onsan!

degan o'tli misralari bor. Shoirning bu xitobi siz bilan bizga hurlik va ozodlikning qanchalar qadrli ekanini har daqiqa eslatib turadi. Shu bilan birga, hech qachon mustamlakachilikka bo'yin egmaslik, boshqa barcha millat va

elatlar bilan teng huquqqa ega o'zbek xalqi o'z erki va mustaqilligi yo'lida tinimsiz kurashmog'i kerakligini uqtirib turadi.

Siz hozirga qadar "Tarix", "Adabiyot" darslari orqali uzoq va yaqin o'tmishimizda yurtimiz, xalqimiz boshiga tushgan mustamlaka, istibdod, zulm va zo'ravonliklarning ko'plab misollari bilan tanishgansiz. Va anglagansizki, turli bosqinchilarning bizning dunyoda tengi yo'q ona diyorimizni o'ziga bo'ysindirish, uning xalqini qul qilish istagi olis tarixning biror davrida susaygan emas.

Biroq o'z erki, hurligini har narsadan ustun qo'ygan ona xalqimiz ham biror bosqinchiga tek qarab turmagan: elu yurti ozod qilish, o'z yerida mustaqil davlat barpo etish yo'lida doimo mardonavor kurashgan.

Keling hozir sizlar bilan Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan jasur bobolarimizni yodga olamiz.

Lavhani diqqat bilan tomosha qilib, ajdodlarimiz ismini birma bir aytamiz.

Sun'iy intellekt yordamida Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ajdodlarimiz siymosi ifodalangan 1 daqiqalik videolavha namoyish etiladi. Lavha davomida ekranda ko'ringan qahramonlar ismini o'quvchilar aytib boradi.

Undan keyin xuddi shu lavhaning qahramonlar ismi yozilgan varianti o'quvchilarga qo'yib beriladi. O'quvchilar ismini topolmagan ajdodlarimiz nomini ikkinchi videolavha orqali bilib oladilar. Videolavha ortida "Kim yurtidan yovni quvsa, mendirman o'sha" qo'shig'i yangrab turadi.

O'qituvchi: Barakalla, bolajonlar, ko'plab buyuk ajdodlarimizni yaxshi tanir ekansiz. Hammalarini doim esda tuting. Chunki ular yurtimiz mustaqilligi uchun, vatanimiz gullab-yashnashi uchun jonlarini ayamaganlar.

Shuning uchun ham poytaxtimizda qad rostlagan muhtasham Yangi O'zbekiston bog'ining o'rtasidagi Mustaqillik monumentidan hozir biz ko'rgan bobolarimizning haykallari o'rin olgan.

Ular Aleksandr Makedonskiy, Doro, Qutayba, Chingizxon, chorizm, sho'ro hukmdorlari va boshqalar boshchiligidagi bosqinlar, ona yerimizga, madaniyatimizga, e'tiqodimiz va tilimizga, erkinlik hamda ozodligimizga qarshi qaratilgan jamiki xurujlarga qarshi kurashdilar. Bugun biz mustaqil davlatmiz!

ASOSIY QISM. Mustaqillikning qadrini tushuntirish. (25 daqiqa)

O'qituvchi: Prezidentimiz boshchiligidagi Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renensansning mustahkam poydevorini qo'yish, dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin egallash yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z mevalarini bera boshladi. Qisqa muddatlarda

yalpi ichki mahsulot hajmining ikki baravardan ko'proqqa ortgani,

ishlab chiqarish, ijtimoiy va boshqaruv sohasi xodimlari oylik maoshlarining keskin ko'tarilgani,

nafaqat shaharlar, balki tumanlar va olis qishloq-ovullarda ham odamlar hayotini farovonlashtirishga xizmat qiladigan infratuzilmaning yaratilgani,

ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya tizimidagi ilgari ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar,

o'sib kelayotgan yosh avlod kelajagiga daxldor barcha sohalar rivojiga ustuvor e'tibor qaratilayotgani...

bularning barchasi, shubhasiz, mustaqillikning, millat va xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi qanchalar muhim qadriyat ekanini ko'rsatadi.

Lekin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu yutuqlar hali yetarli emasligi, xalqimiz, xususan, yoshlarimiz mamlakat va millat manfaatlarini himoya qilish yo'lida tinimsiz izlanishi lozimligini doimiy ta'kidlaydi:

“Erishgan natijalarimizga mahliyo bo'lmasdan, jahondagi vaziyatga sergaklik bilan qarab, barchamiz – kim bo'lishimiz, qaysi vazifada ishlashimizdan qat'i nazar, mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlash haqida jiddiy o'ylashimiz zarur”.

Aziz o'quvchilar, harqalay siz “mustaqillikni mustahkamlash, Vatanimiz dovrug'ini dunyoga keng yoyish ishiga men – hali o'spirin inson qanday hissa

qo'shishim mumkin", deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak. Keling, shu savolga birgalikda javob topishga harakat qilamiz.

Undan avval e'tiboringizni ekranga qaratsangiz. Hozir O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 4-bosqich kursanti Shuhratbek Olimjonovning fikrlarini tinglaymiz.

Jamoat xavfsizligi universitetining 4-bosqich kursanti Shuhratbek Olimjonov intervyusi tinglanadi. U otasi xizmat burchini bajarayotganda chegarada halok bo'lgani, "Jasorat" medali bilan taqdirlangan, otasi kabi vatan himoyachisi bo'lishni niyat qilgani haqida gapirib beradi.

O'qituvchi: Aytingchi, aziz o'quvchilar, Shuhratbekning otasi nima uchun "Jasorat" medali bilan taqdirlandi?

O'quvchilar javobi

O'qituvchi: Shuhratbek tutgan yo'l, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari haqida siz qanday fikrdasiz?

O'quvchilar javobi

O'qituvchi: Endi sizlarga yana bir misol aytaman. Yoshligida otasidan ayrilib, poytaxtimizdagi kichikkina hovlida yashab, katta orzulari sari dadil qadam tashlagan yurtdoshlarimizdan biri shaxmat byo'icha jahon chempioni Rustam Qosimjonovni bugun hamma yaxshi biladi. U 2004-yilda Liviyaning Tripoli shahrida o'tkazilgan toj uchun kurashda ingliz grossmeystri Adamsni mag'lub etib, 17-Jahon chempioni, degan yuksak unvonni qo'lga kiritgan edi.

Sizlarning har biringiz bugun ega bo'lgan sharoit va imkoniyatlar Rustamjonnikidan ko'p bo'lsa ko'pki, aslo kam emas. Demak...

Demak, hamma gap odamning o'ziga bog'liq! Uning harakatlariga, intilishlariga, oldiga katta maqsadlar qo'ya olishiga, shu maqsadlar yo'lida tinimsiz izlanishi, mehnat qilishiga bog'liq!

Mana shu izlanish, o'qib-o'rganish, o'zini tinimsiz rivojlantirish, ishonimgi, mustaqilligimizning mustahkamlanishiga, Vatanimizning yana-da rivojlanishi va dunyoga dovrug' solishiga, albatta, salmoqli hissa bo'lib qo'shilajak!

Xalqimiz faxrlanadigan yurtdoshlarimiz orasida tezkor shaxmat bo'yicha jahon chempioni Nodirbek Abdusattorov ham bor. Keling hozir ularning olamshumul muvaffaqiyatlarga qanday erishgani haqida o'zlaridan eshitamiz.

O'quvchilarga Nodirbek Abdusattorovning fikrlari qo'yib beriladi.

O'qituvchi: Qadrli o'quvchilar, Nodirbekning siz hozir tinglab tomosha qilgan gaplarini aeroportda yozib olishibdi, Nodirbek Dubaydagi musobaqadan qaytib, AQSHga yana bir katta musobaqaga uchib ketayotgan ekan. Unga havasingiz keldimi?

Yoki sport sohasidagi boshqa qahramonlarimizni ham eslaylik: bokschilarimiz, yosh shaxmatchilarimiz, yengil atletikachilarimiz, dyuzdochilarimiz, qilichbozlarimiz, futbol bo'yicha o'smirlar terma jamoasi va boshqalar erishayotgan yutuqlardan ko'nglimiz tog'dek ko'tariladimi-yo'qmi?

Xalqaro fan olimpiadalarida ham sizning tengdoshlaringiz, hatto sizdanda yoshroq o'zbekistonlik o'quvchilar qozonayotgan g'alabalar yurtimizni, xalqimizni dunyoga qayta tanityaptimi-yo'qmi?

Men bunday misollarni yana ko'plab keltirishim mumkin.

Endi ayting-chi, sizlarning o'sha – xalqimizning faxriga aylanayotgan tengdoshlaringizdan biror kam joyingiz bormi?

Demak, hamma gap odamning o'ziga bog'liq! Uning harakatlariga, intilishlariga, oldiga katta maqsadlar qo'ya olishiga, shu maqsadlar yo'lida tinimsiz izlanishi, mehnat qilishiga bog'liq!

Mana shu izlanish, o'qib-o'rganish, o'zini tinimsiz rivojlantirish, ishoningki, mustaqilligimizning mustahkamlanishiga, Vatanimizning yana-da rivojlanishi va dunyoga dovrug' solishiga, albatta, salmoqli hissa bo'lib qo'shiladi!

Qadrli o'quvchilar, bugun sizda hamma imkoniyat bor. Yaqin yillarda ham sentabr oyida siz kabi o'quvchilar bugungidek sinfxonalarda emas, paxta dalalarida umr o'tkazganlar. Ularning boshidan samolyotlar zahar sohib ketgan. Minglab bolalar kasal bo'lib qolganlar. Bu gaplar sizga ertakday tuyulishi mumkin. Lekin bularning hammasi yuz yillar davomida takrorlanib

kelgan. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mana shunday yomon ishlarni to'xtatdi. Keling bu haqida O'zbekiston xalq artisti, sevimli aktrisamiz Dilorom Karimovaning gaplarini tinglab tomosha qilamiz.

Yangi O'zbekiston bog'ida O'zbekiston xalq artisti Dilorom Karimova mustaqillik haqida, paxta zahmatlari, bolalarning dalalarda o'tgan umri haqida, bu fojialarga hurmatli Prezidentimiz chek qo'ygani haqida gapirib bergan videolavha namoyish etiladi. 3 daqiqa.

O'qituvchi: Hozir Dilorom opa aytib bergan voqealar aks etgan qaysi badiiy adabiyot namunalari, kino va teatr asarlaridan xabardorsiz? Ularning birortasidagi Sizga eng kuchli ta'sir qilgan epizodni sharhlab bering-chi.

(Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani va shu asar asosida suratga olingan badiiy film, Shukur Xolmirzayevning "'Qora kamar" pyesasi asosida tayyorlangan shu nomdagi spektakl, Xayriddin Sultonovning "Qanchalar shirinsan, achchiq hayot" nomli hikoyasi, tarixiy mavzudagi, jadid namoyandalari faoliyati yoritilgan badiiy va hujjatli kinoasarlari xususida erkin bahs olib boriladi).

O'qituvchi: Sizningcha, bugungi kunda mamlakatimiz mustaqilligi, milliy xavfsizligimizga tahdid soluvchi qanday tahdidlardan ogoh bo'lishimiz kerak?

(O'quvchilarning faol ishtirokida o'tishi talab etiladigan bu muhokamada milliy mustaqillikka real xavf tug'diruvchi zamonaviy tahdidlar: radikalizm va ekstremizmga asoslangan terrorizm xavfi, gegemon davlatlar va ularning sheriklari tomonidan turli bahonalar bilan qo'zg'atiladigan ichki va tashqi mojarolar, millatlar o'rtasida nizolar chiqarishga urinishlar, ommaviy madaniyat targ'iboti orqali singdirilayotgan xalq va mamlakat taqdiriga beparvolik, takasaltanglik, molparastlik, dabdababozlik singari illatlar muhokama predmeti bo'lmog'i kerak).

O'qituvchi: Ona yurtimiz mustaqilligini asrab-avaylash, mustahkamlashga siz nima bilan, bo'lg'usi qanday harakatlaringiz bilan hissa qo'sha olaman, deb hisoblaysiz?

(Bu savolga javob berishni istagan o'quvchilarning umumiy gaplar bilan emas, balki har birining o'z intilishlari, aniq mo'ljallari asosida gapirishiga erishish qolgan o'quvchilarda ham ularga ergashish, motivatsiya olish, yurt taqdiriga daxldorlik hissini uyg'otishi juda muhimdir).

Shundan so'ng o'qituvchi o'zbek xalqining vatanparvarlik, yurtni asrash, elni e'zozlashga doir quyidagi maqollarini shogirdlariga eslatadi, ularni qisqacha sharhlab beradi:

“Eldan ayrilguncha, jondan ayril!”

“Vatangado bo'lguncha, kafangado bo'!”

“Yovdan qo'rqqan – yovga do'st,

Elni suygan – erga do'st”.

“Xalqqa suyansang, to'lasan,

Xalqdan chiqsang, so'lasan”.

“El boshiga tushgan ish –

Er boshiga tushgan ish”.

“Yurtdan chiqsang ham, eldan chiqma!”

3. YAKUNIY QISM

O'qituvchi she'riy asarni ifodali o'qiy oladigan o'quvchisiga O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub “Sen davlatsan, aziz vatandosh” nomli she'rni beradi. O'quvchi tengdoshlari qarshisida uni ta'sirli ovozda o'qiydi:

O'quvchi: Do'stim!

Sen o'zni ko'p hokisor tutma,

Ojiz bandaman, deb egib yurma bosh.

Yurtning egasisan, zinhor unutma,

Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh.

Mustaqil, mo'tabar mamlakat – sensan,

Mamlakatda oliy mashvarat – sensan,
Xalqsan, hukumatsan, saltanat sensan,
Sen o‘zing davlatsan, aziz vatandosh.

Panada turmoqning fursati emas,
Bu tuproq faqirlar turbati emas,
Sohib bo‘l, davlatning murvati emas,
Sen o‘zing davlatsan, aziz vatandosh.

G‘ayratsiz zotlarga zamonlar yomon,
Jasorat yo‘q yerda yomonlar omon,
Davlat ne, mardona bo‘lmasang qalqon,
Sen o‘zing davlatsan, aziz vatandosh.

Diyonatli o‘tgan naslu nasabing,
Nohaqlikka bardosh bermas asabing,
Keragida bo‘lsin qahring, g‘azabing,
Sen o‘zing davlatsan, aziz vatandosh.

Yurt farzandi asli o‘zi yurt bo‘lar,
Ko‘zi chaqnoq bo‘lar, qalbi o‘t bo‘lar,
Qatorda nori bor vatan but bo‘lar,
Sen o‘zing davlatsan, aziz vatandosh.

Men deb ko'krak kerib yurguvchi o'zing,

Yurtga soqchi bo'lib turguvchi o'zing,

Buyuk kelajakni qurguvchi o'zing,

Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh.

O'qituvchi: – Anglagan bo'lsangiz, she'rning butun ruhida yurtdoshlarimiz, xususan, yoshlarimizning mutelik, befarqlik, shijoatsizlik singari illatlardan xalos bo'lishga, o'zini shu yurtning egasi sifatida his qilishga chaqiriq ufurib turibdi. Zero, ona yurti, tug'ib katta qilgan xalqining buguni va ertasiga daxldorlikni his qilib yashaydigan – o'qiydigan, ishlaydigan, ilm va ijod qiladigan insonlargina Vatanni obod qilishadi, uning mustaqilligini ongli muhofaza eta olishadi. Aks holda, shoir aytmoqchi, **“G'ayratsiz zotlarga zamonlar yomon, Jasorat yo'q yerda yomonlar omon”** bo'laveradi.

Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, bugungi suhbatimizda eslaganimiz xalq maqollarida ham, tinglaganimiz qo'shiq va suhbatlarda, she'rlarda ham mana shu masala – har bir fuqaroning shaxs bo'lib shakllanishi, Vatan va xalq taqdiriga, milliy mustaqillikni asrash va mustahkamlash ishiga daxldor bo'lib yashashga o'tli da'vatlar bor. Shunday ekan, bugungi jonli muloqotimiz, o'zimiz va o'zligimizni anglashga bag'ishlangan suhbatimizning hikmatini ham Prezidentimiz da'vatidan olsak to'g'ri bo'ladi, menimcha:

“VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN YASHAYLIK!”

Mana shu muqaddas vazifa – mustaqilligimizni mustahkamlash, Yangi O'zbekistonni bunyod etib, jahonga tanitish yo'lida sizlarga kuch va quvvat, so'nmas shijoat, o'qishingiz hamda bo'lg'usi hayotingizda katta muvaffaqiyatlar tilayman!

Bundan yuz yillar oldin yurtimiz farzandlari hammadan zo'r bo'lib ulg'ayishini istagan jadid bobolarimiz ham barchamizni tinimsiz harakatga, ilm olishga chaqirgan. Qadrli o'quvchilar, keling endi hammamiz hozir jadid bobolarimiz yod etilgan mashhur qo'shiqni tinglab, birgalikda kuylaymiz.

O'quvchilarga Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi “Uyg'on, o'g'lim!” qo'shig'i qo'yib beriladi va karaoke tarzida birga kuylanadi.

Qadrli o'quvchilar "kelajak soati" darsimizni jadid bobomiz Abdurauf Fitratning quyidagi gaplari bilan yakunlaymiz:

Turma – yugur,

Tinma – tirish,

Bukilma – yuksal,

Hurkma – kurash,

Qo'rqma – yopish,

Yorilma – qo'zg'al.

Kim bu gaplarni hayotining shioriga aylantirsa, albatta oilasiga, Vataniga, millatiga, xalqiga munosib xizmat qiladigan inson bo'lib kamolga yetadi!

Mashg'ulotda faol ishtirok etgan barcha o'quvchilarimizga esa alohida rahmat aytaman.

Xayr, salomat bo'linglar!